

# ONA TILI DARSLARIDA O'QITISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Zarifjonova Dilnura Sharif qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO 'TAU

O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi

3-kurs talabasi

[zarifjonovdilnura@gmail.com](mailto:zarifjonovdilnura@gmail.com) +998970175771

## ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ona tili ta'limalda o'qitish vositalaridan foydalanishning samaradorligi, zamonaviy texnologik va an'anaviy didaktik vositalar orqali ta'lim sifati va o'quvchilar faolligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. O'quvchilarda tilga nisbatan qiziqish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda vizual, audio, multimedia vositalarning ta'siri ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga asoslanib uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ona tili, o'qitish vositalari, ta'lim texnologiyalari, interaktiv metodlar, multimedia, dars sifati, samaradorlik.

## ABSTRACT

This article examines the effectiveness of using teaching tools in mother tongue education, with a focus on how traditional and modern didactic means—such as visual, audio, and digital tools—enhance student engagement and learning quality. It analyzes the impact of multimedia and interactive methods on students' interest in language and development of independent thinking. The study also presents methodological recommendations based on empirical results.

**Keywords:** mother tongue, teaching tools, educational technology, interactive methods, multimedia, lesson quality, effectiveness.

## KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimi shiddat bilan rivojlanayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlarga moslashishni, o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan ehtiyojlarini ta’minlashda samarali pedagogik yondashuvlarni qo‘llashni taqozo etmoqda. Xususan, ona tili fani o‘quvchining muloqot madaniyatini, fikrlash va o‘z fikrini aniq, lo‘nda ifoda eta olish ko‘nikmasini shakllantiruvchi asosiy fanlardan biri sifatida alohida o‘rinni egallaydi. Ona tili darslarida qo‘llaniladigan o‘qitish vositalari ta’lim jarayonining muvaffaqiyatlari kechishini ta’minlovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Didaktik vositalarning tanlovi va ularning dars jarayonidagi integratsiyasi o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish darajasi, darsga bo‘lgan qiziqishining oshishi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv kabi ko‘nikmalarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan bugungi davrda zamonaviy o‘qitish vositalari – multimedia materiallari, interaktiv doskalar, elektron darsliklar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt asosidagi o‘quv platformalarining ahamiyati ortib bormoqda.

Shu bilan birga, metodik yondashuvlarning yangilanishi o‘qituvchidan nafaqat o‘z fanini chuqur bilishni, balki turli vositalarni tanlash, ulardan maqsadga muvofiq va samarali foydalanishni, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirishni ham talab etadi. Afsuski, ayrim holatlarda ta’lim muassasalarida texnik bazaning yetarli emasligi yoki metodik tayyorgarlikning sustligi sababli o‘qitish vositalaridan foydalanish imkoniyatlari to‘liq ishga solinmayapti.

Mazkur maqolada ona tili ta’limida o‘qitish vositalarining o‘rni, ulardan foydalanishning metodik jihatlari, zamonaviy tendensiyalarga mos yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqotdan asosiy maqsad – ona tili darslarida didaktik vositalar orqali ta’lim

sifatini oshirish, o‘quvchilarda tilga nisbatan ongli yondashuvni shakllantirish hamda innovatsion vositalar yordamida o‘quv jarayonini boyitish imkoniyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Ona tili darslarida o‘qitish vositalari quyidagi turlarga bo‘linadi:

- An’anaviy vositalar: kitoblar, daftar, chizma, rasmlar, jadvallar;
- Audiovizual vositalar: audio yozuvlar, videofilm, proyektor, televizor;
- Multimedia vositalari: interaktiv doska, kompyuter dasturlari, elektron kitoblar;
- Innovatsion vositalar: mobil ilovalar, onlayn platformalar, virtual va kengaytirilgan haqiqat.

Zamonaviy pedagogik tendensiyalar ta’lim jarayonini faollashtirishga, o‘quvchilarni o‘zlashtirishda turli sezgi organlarini jalb qilishga, mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan. Shu sababdan o‘qitish vositalaridan foydalanishda:

- Interaktivlik — o‘quvchilarning dars jarayoniga faol ishtirokini ta’minalash;
- Vizualizatsiya — murakkab mavzularni sodda va tushunarli ko‘rinishda taqdim etish;
- Moslashuvchanlik — individual xususiyatlar va o‘quvchilarning turli darajada bilim olishiga mos kelishi;
- Texnologiyalarning uyg‘unligi — turli vositalarning bir-birini to‘ldirishi ta’milanadi.

Hozirgi kunda ona tili darslarida o‘qitish usullari ham o‘zgarmoqda: ma’ruza, munozara, guruh ishlari, loyiha asosida o‘rganish, o‘yinga asoslangan metodlar keng qo‘llanilmoqda.

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, ona tili ta’limida multimedia va interaktiv vositalardan foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirish faoliyatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Mavzularni ko‘rgazmali tarzda tushuntirish o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Misol uchun, video va audio materiallar yordamida talaffuzni o‘rganish, matnlarni tinglash orqali nutq madaniyatini shakllantirish, interaktiv o‘yinlar yordamida so‘z boyligini oshirish kabi usullar ona tili darslarida samarali qo‘llaniladi.

Shuningdek, zamonaviy elektron resurslar o‘quvchilarga qo‘srimcha mustaqil ishlar qilish imkonini beradi, bu esa ularning bilimlarini chuqurlashtiradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ona tili ta’limida o‘qitish vositalaridan foydalanish masalasi ko‘plab pedagogik tadqiqotlarda o‘rganilgan. Jamolov (2012) o‘zining “Chet til o‘qitish metodikasi” asarida, o‘qitish vositalarining dars samaradorligiga ta’siri haqida batafsil fikr bildiradi. Makhmudov (2020) esa innovatsion o‘qitish vositalarining ta’lim sifatini yaxshilashdagi o‘rnini tahlil qiladi. Zamonaviy ta’lim jarayonida interaktiv va multimedia vositalarining qo‘llanilishi o‘quvchilarning o‘zlashtirish faoliyatini faollashtirish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi (Mardonov va boshqalar, 2020).

Ona tili darslarida interaktiv doskalar, video va audio materiallar, kompyuter dasturlari, onlayn platformalar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va mavzuni chuqurroq o‘zlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, an’anaviy vositalar ham o‘z o‘rnini saqlab qolmoqda, chunki ular ko‘pincha mavzuni asosiy tushunchalarini shakllantirishda yordam beradi.

## NATIJALAR

Ona tili darslarida multimedia va interaktiv o‘qitish vositalari (interaktiv doskalar, video, audio materiallar, kompyuter dasturlari) o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, o‘zlashtirish samaradorligini yaxshilaydi. Masalan, talaffuz va nutq madaniyatini shakllantirishda video materiallardan foydalanish an’anaviy ta’lim usullaridan samaraliroqdir.

O'qituvchilar tomonidan so'rovnomalar natijalari shuni ko'rsatdiki, ko'plab pedagoglar zamonaviy o'qitish vositalarini qo'llashga tayyor, ammo texnik jihozlarning yetishmasligi, malaka oshirish kurslarining kamligi kabi muammolar mavjud.

O'qitish vositalarini joriy qilishda quyidagi muammolar uchraydi:

- Maktablarning texnik jihozlar bilan to'liq ta'minlanmaganligi;
- O'qituvchilarning yangi texnologiyalarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklari;
- Darslarning vaqt doirasida bunday vositalarni to'liq qo'llash imkonining cheklanganligi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun:

- O'qituvchilar uchun muntazam malaka oshirish kurslari tashkil etilishi;
- Ta'lim muassasalarining texnik bazasini yaxshilash va qo'llab-quvvatlash;
- O'quv rejalarini va dasturlarini zamonaviy o'qitish vositalariga moslashtirish lozim

Maqolada ona tili ta'limida o'qitish vositalaridan foydalanishni o'rghanish uchun empirik va nazariy metodlardan foydalanilgan. Nazariy usullar — pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va pedagogik tendensiyalarni o'rghanishdan iborat bo'lib, empirik usullar orqali darslarda turli o'qitish vositalarining samaradorligi baholangan.

Metodologiya qismida o'qitish vositalarining ta'lim jarayonida qanday qo'llanishi, ularning o'quvchilar bilimiga ta'siri, o'qituvchilarning ushbu vositalarni qo'llashdagi imkoniyatlari va muammolari tahlil qilindi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning pedagogik shartlari va usullari ko'rib chiqildi.

## MUHOKAMA

Ona tili ta'limida o'qitish vositalaridan samarali foydalanish uchun nafaqat texnik bazani yaxshilash, balki pedagoglarning malakasini oshirish va ta'lim dasturlarini

zamonaviy texnologiyalar bilan moslashtirish zarur. Zamonaviy o'qitish usullarining (interaktiv, loyiha asosida, o'yin metodlari) vositalar bilan uyg'unlashuvi ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish uchun o'qitish vositalarining moslashuvchanligi, turli didaktik materiallar bilan boyitilishi muhimdir. Bu ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qiladi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvini rag'batlantiradi.

## XULOSA

Ona tili ta'limida o'qitish vositalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Multimedia, audio-vizual va interaktiv vositalar o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini faol va samarali qiladi. Biroq, ushbu vositalardan samarali foydalanish uchun maktablarning texnik jihozlanganligi va o'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar zarur. Kelajakda zamonaviy texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarni uyg'unlashtirish orqali ona tili ta'limida yangi yutuqlarga erishish mumkin.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

### KITOBLAR

1. Jamolov, J. (2012). *Chet til o'qitish metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi.

### JURNALLAR

Makhmudov, K. (2020). Computer literacy is a tool to the system of innovative cluster of pedagogical education. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(5), 71-74.

2. Mardonov, S., Khodjamkulov, U., & Botirova, S. (2020). The Need to Educate Young People with the Spirit of Patriotism in the Context of Globalization. *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 243-247.

### VEBSAYTLAR

4. Barduhn, S. (2014). Developing cross-cultural awareness in the monolingual classroom. *Teaching English*, British Council, BBC. Retrieved from: <https://www.teachingenglish.org.uk/article/developing-cross-cultural-awareness-monolingual-classroom>.